

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIYEV SHOKIR JO‘RAQULOVICH**

**MUHAMMAD SOLIH KASHFIY TERMIZIYNING ADABIY MAHORATI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract Doctor of Philosophy (PhD)  
on filological sciences**

**Aliyev Shokir Jo‘raqulovich**

Muhammad Solih Kashfiy Termiziyning adabiy mahorati..... 3

**Aliyev Shakir Jorakulovich**

Литературное мастерство Мухаммада Салиха Кашфи Термизи ..... 23

**Алиев Шакир Джуракулович**

The Literary Mastery of Muhammad Salih Kashfi Termizi ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIYEV SHOKIR JO‘RAQULOVICH**

**MUHAMMAD SOLIH KASHFIY TERMIZIYNING ADABIY MAHORATI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4PhD/Fil4109 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning samdu.uzdagi veb-sahifasi hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Ramazon Jumaqulovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xo'jaqulov Sirojiddin Xolmaxmatovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Amonova Zilola Qodirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 139-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ — raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.A.Hasanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.M.Muxitdinova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida alohida adabiy muhitda yaratilgan boy ma'naviy merosni tarixiy, qiyosiy, tipologik jihatlariga e'tibor berish, mumtoz an'analarning hozirgi davr badiiy adabiyotiga ta'siri, ijodkor uslubi, poetik mahorati, ijtimoiy muhit va maktablarning ahamiyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Har bir ijodkorning milliy adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasini hamda ijod mahsulining o'ziga xos yo'nalishlarini, kelib chiqish nuqtai nazaridan janr masalasini aniqlash, shu orqali ijodkor individual manerasini ochib berish dolzarblik kasb etmoqda. Shu ma'noda, adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan adabiy manbalarni undagi mavjud ma'lumotlarni sintez qilish, adabiyotshunoslikda kam o'rganilgan shoirlar hayoti va merosini zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy jamoatchilikka taqdim etish muhim ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida XVI-XVII asr adabiyoti tarixining o'ziga xos jihatlarini belgilash, bu davrda yaratilgan adabiy merosni tadqiq etish, Movarounnahr va Xuroson maktablarida yaratilgan asarlarni bugungi zamon talabi asosida o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo adabiyotshunosligida adabiy manbashunoslik, mumtoz Sharq she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, tadrijiy rivojlanish jarayonlari, uning asosiy yo'nalishlari, tasavvufiy adabiyotning vakillari hayoti va ularning yaratgan asarlarini yangicha yondashuvlar asosida yoritish ustuvorlik qilmoqda. Shu bois, adabiyotshunoslikda so'fiyona she'riyatning turli yo'nalishlari, orifona ruhdagi asarlar sharhi, tariqat ahli shoirlarining tarjimai holi va ularning badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlarini adabiyotshunoslik jihatidan muhim yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda.

So'nggi yillarida mamlakatimizda Movarounnahr hududidan yetishib chiqqan mumtoz adabiyot vakillarining adabiy merosi bo'lgan qo'lyozma asarlarini tadqiq etish, tarjima qilish, sharhlash, asar haqida ilmiy xulosalar yozish, ularning lisoniy xususiyatlarini o'rganish, badiiy tafakkurini baholash, ma'rifiy g'oyalarni tahlilga tortish muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi"<sup>1</sup>. Shu bois asli Termizlik bo'lgan, biroq boburiylar saroyi Hindistonga ko'chib borgan Muhammad Solih Kashfiy Termiziy adabiy merosi borasida keng ko'lamli tadqiqot olib borish, shoir tomonidan bayon etilgan g'oyalarning mazmun-mohiyati va maqsadini, davrning zaruratiga qarab tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, 2018-yil 12-maydagi

---

<sup>1</sup> Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017-у. 4 - август.

PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-292-son “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa ma‘muriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XVI-XVII asrlar mobaynida Boburiylar saroyida adabiy faoliyat olib borgan Termiziy sayyidlar borasida forsiy manbalarda qisqacha ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Kashfiy hayoti va adabiy merosi haqida fors olimi Kurush Mansur “Manoqibi Murtazoviy” asarining muqaddima qismida muhim ma‘lumotlarni taqdim etadi<sup>2</sup>.

Xorijlik manbashunos olimlar bugungi kunga qadar termiziylar adabiy merosi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar. Adib Sobir Termiziy, Munjik Termiziy, Burhoniddin Termiziy hayoti va merosi bo‘yicha fors olimlaridan Badiuzzamon Furuzonfar Tavfiq Hoshimpur Subhoniy<sup>3</sup>, Ehson Shavorib Muqaddam<sup>4</sup>, Muhammad Ali Nosih<sup>5</sup> Muhammad Donishgar, va Ahmadrizo Yalmaho<sup>6</sup> kabi olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Turk olimlaridan Sayyid Burhoniddin Termiziy hayoti va ma‘naviy merosi borasida Abdulboqi Gulpinoriy, Ali Rizo Qorabulut<sup>7</sup> kabi olimlarning tadqiqotlari

---

<sup>2</sup> Muxammad Solih Kashfiy Termiziy. Manoqibi Murtazaviy/bo tasxehi Kuруши Мансур. – Texron: Intishoroti Ravzana, 1342 x. – S. 7.

<sup>3</sup> Саййид Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий. Мажмуаи мавоиз ва калимоти Саййид Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий ба ҳамроҳии тафсири сураи «Муҳаммад» ва «Фатҳ»/бо тасъҳихот ва ҳавошийи Бадиуззамон Фурузонфар. – Техрон: Маркази наشري донишгоҳий, 1339. – С. 106; Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий. Мақолоти Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий/ Тасъҳихи Тавфиқ Ҳошимпур Субҳоний. – Техрон: Нашри анжумани осору мафоҳири фарҳангий, 1395. – С. 3-24.

<sup>4</sup> Мунжик Термизий. Девон/ Бо кушиш ва муқаддимаи Эҳсон Шавориб Муқаддам. – Техрон: Мероси мактуб, 1391. – С. 7.

<sup>5</sup> Адиб Собир Термизий. Девон/Бо кушиш ва муқаддимаи Мухаммад Али Носих. – Техрон: Илмий, 1343. – С. 17.

<sup>6</sup> Адиб Собир Термизий. Девон/Бо кушиш ва муқаддимаи Мухаммад Донишгар. – Техрон: Байнал-милал худо, 1370. – С. 3-9; Ахмадризо Ялмаҳо//Нақди Девони Адиб Собир Термизий. – Техрон: Китоби моҳи адабиёт ва фалсафа, моҳи обон, 1384. №97.

<sup>7</sup> Сеййид Бурханеддин Тирмизӣ. Маъриф. Али Риза Карабулут терсӯмеси. 1995.

Termiz adabiy muhitida yaratilgan tasavvufiy manbalarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar Termiziy nisbasi bilan ijod qilgan Termiziylar ilmiy-adabiy merosi borasida xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Termiz tarixi va ilmiy-adabiy muhiti vakillari borasida mahalliy olimlarimizning ishlari tahsinga loyiq. Bu boradagi eng muhim izlanishlarini Sayyid Mahmud Taroziy<sup>8</sup>, U.Uvatov<sup>9</sup>, R.Zohid<sup>10</sup>, I.Usmonov<sup>11</sup>, M.Kenjabek<sup>12</sup>, A.Abdullayev, R.Abdullayev<sup>13</sup>, A.Jumanazar<sup>14</sup>, S.Sayfulloh<sup>15</sup>, J.Cho'tmatov<sup>16</sup>, S.Tursunov, B.Murtazoyev<sup>17</sup>, J.Mirzayev<sup>18</sup>, S.Azimov, R.Xoliqova, Q.Jo'rayev, J.Esanov, M.Boboyeva<sup>19</sup>, M.Sultonova, N.Abbosxonova<sup>20</sup> kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Termiziy namoyandalar va ularning bebaho merosi haqida M.Kenjabekning "Termiz tazkirasini" kitobi<sup>21</sup> diqqatga sazovor. Yosh olimlardan J.Cho'tmatov "Termizning bezavol qal'alari yoxud Termiz tarixi"<sup>22</sup> monografiyasida ilk bor arab va fors tilidagi asosiy manbalarga tayanib, Termiziy namoyandalar haqida muhim ma'lumotlarni yaxlit tarzda umumlashtirib, tahlil va xulosalar bilan xalqqa taqdim etdi. Shuningdek, Termiz tarixi va allomalari merosining tarqalish jug'rofiyasiga oid birlamchi ma'lumotlar "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katalogi" nomli fundamental tadqiqotda o'z aksini topib, dunyo qo'lyozmalar fondida bugungi kunga qadar 1419 ta Termiziy mutafakkirlarning qalamiga mansub asarlar nusxasi saqlanishi ko'rsatib o'tilgan<sup>23</sup>.

Biroq yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar orasida Termiziy sayyidlardan bo'lgan – Muhammad Solih Kashfiy Termiziyning hayoti, boy adabiy merosi tavsifi, asarlaridagi poetik mahorat uslubi, tasavvufiy motivlar, ramziy tasvirlar, Boburiylar davrida gullab-yashnagan Hindiston adabiy maktabida ijod qilgan

<sup>8</sup> Олтинхонтўра Саййид Маҳмуд Тарозий. Нурул басар фий сийрати хойрил башар соллаллоху алайхи ва саллам. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2021. – Б. 221.

<sup>9</sup> Убайдулла Уватов. Икки улўғ донишманд (Абу Исо ат-Термизий, Ал-Ҳаким ат-Термизий). Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016 — 112 бет; Убайдулла Уватов. Буюк юрт алломалари. Тошкент: Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016 — 424 бет.

<sup>10</sup> Рашид Зоҳид. «Саботул ожизин» асари матни, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. – Тошкент: «Турон замин зиё» нашриёти. 2015.

<sup>11</sup> Убайдулла Уватов, Иброҳим Усмонов. Термизлик икки аллома. Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017 — 144 бет.

<sup>12</sup> Кенжабек М. Термиз tazkirasini. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. — 192 б.;

<sup>13</sup> Абдуллаев Р. Ҳаёт ва эҷодиёти Амиру-ш-шуаро Муиззй. – Душанбе: Ирфон, 2020. – С. 3.

<sup>14</sup> Абудсаттор Жуманазар. Вахшувор (Сўфи Оллоёр ҳақида. –Тошкент: Академикнашр, 2015. – Б. 7-22.

<sup>15</sup> *Собир Сайқалий Ҳисорий*. Равзат уш-шуҳадо. Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004 (Нашрга тайёрловчи. Сайфиддин. Сайфуллоҳ, Довуд Хунзикар). 6-б

<sup>16</sup> Чўтматов Ж. Термизнинг безавол қалъалари ёҳуд Термиз тарихи. –Тошкент: Янги нашр, 2017. — 352 б.

<sup>17</sup> Турсунов С., Муртазоев Б. Термизийларнинг илмий тафаккури. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 266.

<sup>18</sup> Жалолиддин Мирзо. Термиз тарихи. – Тошкент: Шарк, 2001; Жалолиддин Мирзо. Термиз саййидлари. – Т: Санъат журнали нашриёти, 2008;

<sup>19</sup> Бобоева М.. Сўфий Оллоҳёр «Сабот-ул-ожизин» манзумасининг ғоявий-бадий талқини. Сам.ДУ 2012. – Б. 9.

<sup>20</sup> Саййидлар шажараси. М.Султонова, Н. Аббосхонова. – Т.: Тошкент ислом университети, 2017.

<sup>21</sup> Кенжабек М. Термиз tazkirasini. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. — 192 б.; Шу муаллиф. Буюк Термизийлар. Термиз tazkirasini. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2017. — 528 б.

<sup>22</sup> Чўтматов Ж. Термизнинг безавол қалъалари ёҳуд Термиз тарихи. –Тошкент: Янги нашр, 2017. — 352 б.

<sup>23</sup> Термизлик олиmlар асарларининг жаҳон фондларидаги қўлёмалари каталоги. – Тошкент: Фан, 2018.

boshqa movarounnahrlik namoyondalar merosi kam tadqiq etilgan. Shu sababli ushbu tadqiqot ishi Hindistonda faoliyat olib borgan Termiziy sayyidlarning boy adabiy merosiga bag'ishlanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tojik tili va adabiyotining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Muhammad Solih Kashfiy Termiziyning hayoti, devoni va asarlarining tarkibiy qismi, she'riyatidagi tasavvufiy motivlar, ijodkor poetik mahoratini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

fors-tojik adabiyotshunosligida Muhammad Solih Kashfiy Termiziy hayoti va adabiy merosi borasida kam ma'lumot berilganligini inobatga olib, shoirning mufassal tarjimai holini yaratish;

Termiz adabiy maktabining tarixiy ildizi, ijtimoiy-madaniy hayotning termiziy namoyandalar adabiy merosidagi ta'sirini ochib berish;

termiziy sayyidlar adabiy merosining tarqalish jug'rofiyasini aniqlash;

Muhammad Solih Kashfiy Termiziy ijod qilgan adabiy muhitning tarixiy, siyosiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va shart-sharoitlarini birlamchi manba va ma'lumotlar asosida asoslab berish;

shoirning qo'lyozma holida mavjud bo'lgan devonining nusxasi va boshqa asarlarini tavsiflash va genezisini aniqlash hamda shoirlik mahoratini ochib berish;

Kashfiy adabiy merosidagi tasavvufiy, axloqiy, ishqiy va an'anaviylikka asoslangan o'ziga xos individual qarashlarini izohlash;

shoir devonidan joy olgan she'rlarning janr xususiyatlarini belgilash, ularning mavzu ko'lami va mundarijasini o'rganish, kompozitsion va badiiylik sathini aniqlash;

shoir asarlaridagi tarixiy obrazlarni o'rganish, tasavvuf va badiiy ijodga bo'lgan ijodkorlik mahoratini qiyosiy tarzda dalillash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Muhammad Solih Kashfiyning Buyuk Britaniya, Hindiston va Pokiston mamlakatlarining qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxonalaridagi "Manoqibi Murtazoviy" hamda Hindistonning Devon kutubxonasida saqlanib kelayotgan "Devon"i, shuningdek, shoir hayoti va merosini o'rganishga doir tazkiralar va tarixiy asarlar tanlangan.

**Tadqiqot predmeti** Muhammad Solih Kashfiy tarjimai holi, devoni tarkibi, shoir adabiy merosining mazmuni, g'oyaviy mundarijasi hamda janriy, badiiy, tasavvufiy va uslubiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy yoritishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida adabiy manbashunoslik, biografik, psixobiografik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Termiz adabiy maktabi vakillari Xuroson, Hind diyorlarida ham ijod etganligi, adabiyot va san'at rivojiga katta hissa qo'shganligi Muhammad Solih Kashfiy Termiziy adabiy merosi orqali aniqlanib, shoir ijodidagi ilohiy ishqqa yetishmaslik, hayot va o'lim falsafasi, fano va baqo singari tragizm hamda

murshid-murid, sham va parvona, may va mayxona, mashuq, gul kabi tasavvuf motivlarining faol qo'llanilgani ochib berilgan;

Boburiylar hukmronligi ostida bo'lgan Hindiston diyorida termiziy sayyidlarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ijodiy mahorati, asrarlarining mavzu-mundarijasi yoritilib, g'azal, muxammas, soqiynoma, masnaviy, mustazod, ruboiy, musaddas kabi janrlarning taraqqiy etganligi va insonparvarlik, xalqchilik singari gumanistik g'oyalar asarlar tarkibiga singib ketganligi aniqlangan;

Muhammad Solih Kashfiy Termiziy "Devon"ining genezisi aniqlanib, undagi "Manoqibiy Murtazoviy", "E'jozi Mustafaviya", "Risolai musiqiy", "Ruboiyyot", "Shohid Qudsiy" kabi asarlaridagi san'at, islom tarixi, tasavvuf nazariyasi kabi turli xil yo'nalishlarni o'zida jamlaganligi hamda mazkur asarlarida tavsif, tashbeh, tajnis, kinoya, majoz, istiora, ishtiyoq, irsoli masal singari san'atlardan mohirona foydalanganligi aniqlangan;

Kashfiyning "Manoqibi Murtazoviy" asari tarkibi, mavzulari undagi g'oyalar ko'lami, tarixiy voqealarning real tasviri hamda shoir har bir nasriy va nazmiy bayonlarni lafziy va ma'naviy san'atlari bilan boyitganligi, boshqa asarlaridan farqli ravishda ahli bayt hayoti, siyrati, suratiga bag'ishlanganligi, muhaddislar, mutasavvif zotlar asarlari va salaf shoirlar ijodi bilan asoslaganligi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Muhammad Solih Kashfiy Termiziy boy merosining genezisi, adabiy, tarixiy va tasavvufiy germenevtikasi, davr adabiy muhitida tutgan o'rni, shoir devonining tarkibiy qismi, asrarlarining mavzu-mundarijasi, tasavvufiy motivlari, poetikasi sintezi va ijodiy yondashuvi kabi jihatlarini o'rganish, mavzuga aloqador manbalarni tizimli tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar orqali Movarounnahr adabiyoti tarixi uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, tasavvuf va mumtoz adabiyot munosabatlarining o'ziga xos jihatlarini ochishga ko'maklashishi, Termiz va Hind adabiy maktablari o'rtasidagi adabiy aloqalarning tarixiy jarayoni va rivojlanishini ko'rsatishi, shuningdek, adabiyotshunoslik fanidan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga xizmat qilishi bilan asoslanadi;

Shoir she'riyatining mavzulari ko'lami, janriy tarkibi, mutasavvif shoirlar ijodiga payravlik tasavvufiy talqinlar tasviri, orifona va oshiqona g'azallar tarannumi, tarixiy shaxslarning shoirona tasviri, munojot, hamd, na't, odob-axloqqa oid asrarlarining o'ziga xos uslubi, shoir she'riyatidagi talmeh, tavsif va tashbeh san'atlarining qo'llanilishi, asarlaridagi shaxslar manoqibi kabi adabiy talqinlar tahlil etilib, yangi davr o'quvchisiga mumtoz adabiyot, badiiy san'at takomilida Termiziy sayyidlarining salmoqli hissa qo'shganini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning ishonchliligi ilmiy-tahliliy va qiyosiy-tipologik metodlar bilan asoslanganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, Muhammad Solih Kashfiyning Termiziy adabiy maktabi vakili sifatida Boburiylar saroyida ijodiy faoliyat olib borganini, davr adabiy muhitida tutgan o'rni borasida tarixiy va adabiy manbalar, qolaversa, muallif asarlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Muhammad Solih Kashfiy Termiziyning tarjimai holi, Termiziy shoirlar vakili sifatida Hind diyorida faoliyat yuritgani, shuningdek, davr adabiy muhitida tutgan o‘rni, asarlarining poetikasi, ma’no-mazmuni, tasavvufiy motivlari kabi ijodkorga xos bo‘lgan uslub ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi xulosalardan “Fors-tojik adabiyoti” “Matnshunoslik va manbashunoslik”, “Adabiy jarayon” fanlarini va maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish hamda oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmalar, majmualar, adabiy aloqa va adabiy ta’sirga oid lug‘atlar yaratish, ularni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XVI asr oxirlari XVII boshlarida Termiz adabiy muhitining yetuk vakili Kashfiyning boy adabiy merosini tadqiq etishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Termiz adabiy maktabi vakillari Xuroson, Hind diyorida ham ijod etganligi, adabiyot va san’at rivojiga katta hissa qo‘shganligi Muhammad Solih Kashfiy Termiziy adabiy merosi orqali aniqlanib, shoir ijodidagi tragizm, tasavvuf motivlarining muhim o‘rinlari ochib berilganligidan A1-XT-0-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy va 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan F3-2016-0908165532 - raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental tadqiqoti loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘zbekiston Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 10-oktabrdagi №198/7-son ma’lumotnomasi). Natijada yuqorida keltirilgan bandlarning ruhiy, tarbiyaviy, odob-axloq va insoniy fazilatlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularidan keng foydalanishga xizmat qilgan;

boburiylar hukmronligi ostida bo‘lgan Hindiston diyorida termiziy sayyidlarining ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, ijodiy mahorati, asarlarining mavzu-mundariyasi yoritilib, g‘azal, muxammas, soqiynoma, masnaviy, mustazod, ruboiy, musaddas kabi janrlarning taraqqiy etganligi va insonparvarlik, xalqchilik singari gumanistik g‘oyalar asarlar tarkibiga singib ketganligi aniqlangan xulosalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan 2024-yil “Termiziylar avlodimiz” va “Buyuk Termiziylar” rukni ostida tayyorlangan “Kashfiy Termiziy” va boshqa Termiziylar haqidagi xalqchil risolalarni tayyorlashda foydalanilgan. (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 16-sentabrdagi №01-07/122-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarining qo‘llanishi orqali bir qator Termiz adabiy muhiti tarixi, termiziy sayyidlarining adabiyot va san’atga salmoqli hissa qo‘shganligi, Kashfiy Termiziy hayoti va boy merosini teranroq o‘rganish, Boburiylar saroyida Termiziy sayyidlar o‘ziga xos ilmiy-adabiy maktab yaratganligini hamda adabiy manbalarni tavsiflash va ularni tadqiq etish metodini o‘rganishga yo‘l ko‘rsatgan;

Muhammad Solih Kashfiy Termiziy “Devon”ining genezisi aniqlanib, undagi “Manoqibiy Murtazoviy”, “E’jozi Mustafaviya”, “Risolai musiqiy”, “Ruboiyyot”, “Shohid Qudsiy” kabi asarlaridagi san’at, islom tarixi, tasavvuf nazariyasi kabi

turli xil yoʻnalishlarni oʻzida jamlaganligi hamda mazkur asarlarida tavsif, tashbeh, tajnis, kinoya, majoz, istiora, ishtiyoq, irsoli masal singari sanʼatlardan mohirona foydalanganligiga oid xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazida bajarilgan “Oʻrta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy falsafiy merosi ensiklopediyasi”ni tayyorlashda foydalanilgan. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2024-yil 21-noyabrdagi №02/515-son maʼlumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanishi orqali Boburiylar sulolasining siyosiy arboblari Akbarshoh va Shohjahon davrida vujudga kelgan bir qator adabiy anʼanalar va ularning badiiy ahamiyati, shuningdek, xattotlik, rassomchilik badiiy sanʼatining rivojlanishi hamda tariqat ahli boʻlgan shoirlar merosini oʻrganish imkoniyatiga zamin hozirlagan;

Kashfiyning “Manoqibi Murtazoviy” asari tarkibi, mavzulari undagi gʻoyalar koʻlami, tarixiy voqealarning real tasviri hamda shoir har bir nasriy va nazmiy bayonlarni lafziy va maʼnaviy sanʼatlari bilan boyitganligi, boshqa asarlaridan farqli ravishda ahli bayt hayoti, siyrati, suratiga bagʻishlanganligi, muhaddislar, mutasavvif zotlar asarlari va salaf shoirlar ijodi bilan asoslaganligi ochib berilganligiga oid xulosalaridan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” telekanalida efirga uzatilgan “Bedorlik”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Ranginkamon” va “Adabiy jarayon” kabi telekoʻrsatuv va eshittirishlar senariylarini yozishda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali”ning 2024-yil 29-oktabrdagi 01-13-1694-son maʼlumotnomasi). Olingan natijalarning qoʻllanishi XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlaridagi Termiziy sayyidlar sheʼriyati, badiiy sanʼat, xattotlik va adabiyotga qoʻshgan hissalarini oʻrganishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishi natijalari 4 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida oʻtkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, xususan, mahalliy ilmiy jurnallarda 9 ta xorijiy jurnallarda esa 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlari hamda dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi asoslangan, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari

bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muhammmad Solih Kashfiy Merosining o‘z davri adabiy muhitida to‘tgan o‘rni”** deb nomlanadi va u ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“Termiz adabiy muhiti rivojida Kashfiy va ajdodlarining tutgan o‘rni”** deb ataladi. Bu qismda Termiz adabiy muhitining tarixiy jarayoni, rivojlanish bosqichlari, termiziy shoirlarning adabiyot va san‘atga qo‘shgan salmoqli ulushi, termiziy sayyidlarning ijodiy faoliyati, termiziylar qalamiga mansub adabiy manbalar, Termiz adabiy muhiti borasida yozilgan tarixiy-adabiy manbalar hamda zamonaviy tadqiqot ishlari bayon etilgan.

Ushbu faslda Termiz adabiy muhiti tarkibiga kiruvchi hududlar borasida tahliliy va qiyosiy ma‘lumotlar berilib, tarixiy-adabiy manbalar keng o‘rganiladi. Shu davrdagi bir qator ilmiy-adabiy, tarixiy asarlar siyosiy va adabiy hayotda mavjud bo‘lgan turli yo‘nalishlar, adabiy jarayonlar, buyuk namoyandalar ijodi xususiyatlarini yoritish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu davr adabiy muhiti va uning namoyandalari ilmiy-adabiy merosini o‘rganishda tazkira, bayoz va tarixiy asarlarning ahamiyati katta. Biz e‘tiborimizni qaratayotgan mavzu Termiz adabiy muhitining namoyandalari bilan bog‘liq.

Bugungi kunga qadar Termiz va Chag‘oniyon tarixi, ilmiy-adabiy muhiti va uning namoyandalari borasida bir qancha asarlar yozilgan. Biroq, haligacha ilm ahliga tadqiq etilmagan va o‘z tadqiqotchilarini kutib yotgan ko‘plab dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, Termiz tarixi va adabiy muhiti borasida dastlabki tarixiy va ilmiy ahamiyatga molik tadqiqotlar arab va fors olimlari tomonidan amalga oshirilgan. E‘tiborli jihati shundaki, bu kabi tadqiqotlar ancha yillar oldin – o‘rta asrlarda amalga oshirilgan.

Ibn al-Fariqun tomonidan yozilgan **“Hudud ul-olam minal-mashriqi ilal-mag‘rib”** asari dunyoning boshqa mashhur shaharlari qatori Termiz shahri tarixi, madaniy muhiti borasida ham qimmatli manba sanaladi. Asarda muallif Termizni **“ko‘rkam va obod shahar”** deb ta‘riflashi bejiz emas. **“Hudud ul-olam”** asarida Termiz shahrini quyidagicha tavsiflaydi:

ترمد شهريست خرم و بر لب رود جيحون افتاده و اورا قهندزيست بر لب رود و اين شهر بارگه  
ختلان و جغانيان استو از وي صابون نيك و برياي سبز و بادبزن خيزد

*(Mazmuni: Termiz chiroyli bir shahar bo‘lib, Jayhun daryosi yon atrofida joylashgan, uning bir qal‘asi bor, bozori dunyoga mashhur Xatlon va Chag‘oniyon ahli shu erga kelib savdo qiladi).*

Ma‘lum bo‘lishicha Termiz nafaqat madaniyat markazi bo‘lgan, balki savdo va tijorat sohasida ham o‘z davrining yirik markazlaridan sanalgan.

O‘z davrining muhim adabiy va tarixiy manbalaridan biri **“Safinai Tirmiz”** tazkirasini muhim ahamiyatga ega. Bu asar VIII hijriy-qamariy asrda Muhammad ibn Yag‘mur tomonidan yozilgan. Unda 115 shoir adabiy merosi va hayoti haqida so‘z yuritiladi. Kitob Termizda yozilganligi hamda temiziy namoyandalar hayoti va merosi joy olganligi sababli **“Safinai Tirmiz”** nomini olgan. Asarning ahamiyatli jihati shundaki, ko‘plab mo‘tabar tazkiralarda kelmagan shoirlar hayoti va faoliyati bu kitobda mavjud. Asar 1396/2017-yili eronlik fors olimlari Umid Sururiy va Sayyid Boqir Abtahiy tomonidan tadqiq etilib nashrga tayyorlangan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan bugungi kunga qadar Termiz tarixi va ilmiy-adabiy muhiti vakillari borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Sayyid Mahmud Taroziy, Abdulgʻani Abdullo, U.Uvatov, I.Usmonov, J.Hamroqulov, A.Abdullayev, J.Choʻtmatov, S.Tursunov, J.Mirzayev, S.Azimov, B.Murtazoyev, R.Xoliqova, Q.Joʻrayev, J.Esanov, M.Ismoilov va boshqalar tomonidan bu hududdan yetishib chiqqan termiziy namoyandalar borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Termiziy namoyandalar va ularning bebaho merosi haqida M.Kenjabekning “Termiz tazkira”si kitobi diqqatga sazovor.

Yosh olimlardan J.Choʻtmatovning “Termizning bezavol qalʼalari yoxud Termiz tarixi” monografiyasida ilk bor arab va fors tilidagi muhim manbalar asosida termiziy namoyandalar haqidagi kerakli maʼlumotlarni yaxlit tarzda umumlashtirib tahlil va xulosalar bilan xalqqa taqdim etdi. Termizlik shoirlar hayoti va adabiy maktabining yuzaga kelishi borasidagi maʼlumotlar taniqli adabiyotshunos olim A.Abdullayev tomonidan tayyorlanib nashr ettirilgan. Eronning “Al-Huda” xalqaro nashriyotida bosilib chiqqan “Devon”i Adib Sobir Termiziy diqqatga sazovordir.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Kashfiy ijodida shoir hasbi holining badiiy talqini” deb nomlanib, unda shoir tarjimai holi tarixiy-adabiy va zamonaviy tadqiqotlar asosida oʻrganiladi. Shuningdek, shoir ilmiy-adabiy merosidagi avtobiografik maʼlumotlar tahlil etiladi. XVI asr oxiri va XVII asr boshlari Termiz zaminidagi adabiy maktablar faoliyati biroz susayib, shu zaminda ijod qiluvchi koʻplab ulugʻ mutafakkirlar boshqa ilm markazlariga koʻchib ketishgani tarixiy manbalarda zikr etiladi. Kashfiy Termiziy tarjimai holi va merosi haqida muxtasar maʼlumot bergan yosh termiziyshunos olimlardan K.Jamahmatov yuqoridagi fikrlarning tasdigʻi sifatida shunday maʼlumot keltiradi: “Movarounnahr zaminidan boburiylar sulolasining hukmronligi davrida koʻplab movarounnahrlik olimlar-u shoirlar fors va hind diyoralriga koʻchib borishgan. Judoiy Termiziy, Sayid Ali Termiziy, Mushkinqalam Termiziy, Fozil Termiziy, Nosir Termiziy, Fathiy Termiziy, Sayid Hoshim Termiziy, Mirsafoiy Termiziy, Muhammad Amin Termiziy va Kashfiy Termiziy kabi zotlar Termizning asl farzandlaridir. Kashfiy Termiziy hayoti va merosi borasidagi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bu zot mohir xattot, naqqosh, musavvir, shoir va yirik tasavvuf namoyandasi boʻlgan”. Tadqiqotchi keltirilgan ushbu maʼlumotlarda Kashfiyning ota-onasi qachon va qanday sabablar bilan koʻchib ketgani, shuningdek, Termiz adabiy maktabining vakillari Termizdan ommaviy chiqib ketganligi sabablari ochiqdanmagan. Biz ushbu maʼlumotlarga biroz boshqacharoq yondashgan holda quyidagi sabablarni keltirsak maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻylaymiz. Maʼlumki, Termiziy sayyidlar ilm-maʼrifatni yoyish va adabiyot, sanʼatni rivojlantirish maqsadida dunyoni kezib, insonlarni maʼrifatparvarlikka va poklikka chorlashga doimo intilib kelgan. Shu bilan birgalikda, termiziy sayyidlar doimo bir joyda yashamagan, balki dunyo kezib, olingan bilim va tajribalar asosida asarlar yozishgan. Termiz tarixi, olim-u fuzalolari, muhaddis-u mufassirlari va shoirlari borasida “Buyuk Termiziylar” kitobini tarixiy manbalar asosida yozgan olim M. Kenjabek quyidagi maʼlumotni bayon etadi: “Shoir va xattot Muhammad Solih ibn Amir Abdulloh Husayniy

Termiziy XVI asrning so‘nggi choragida Termizda tug‘ilgan, ilk ta‘limni shu yerda olgan. 1605-yilda otasi bilan Hindistonga, boburiy podshohzodalar huzuriga ketgan. Uning otasi – samarali noyob ijodi uchun Mushkin qalam unvonini olgan, u Mir Abdulloh Termiziy boburiy shoh Jahongir (1569-1627-y) saroyida xizmat qiladi. Keyinroq otasi vafot etgach, Solih Termiziyning o‘zi ham Shoh Jahon (1592-1666 y) saroyida fa‘oliyat yuritadi. Muhammad Solih Termiziy mohir xattotlardan bo‘lib, Kashfiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Uning “Manoqibi Murtazoviy” (“Murtazoga xos go‘zal xislatlar”) deb nomlangan asari bor. Muhammad Solih Termiziy 1651-yilda vafot etgan”. Kashfiy Termiziyning tavallud sanasi ma‘lum emas. 1651-1652-yillar atrofida Agra shahrida vafot etganligi aytiladi.

Mirmuhammad Solih Kashfiy Termiziy, Subhoni, Koshifiy, Termiziy, Husayniy kabi taxalluslar bilan ijod qilganligi manbalarda tilga olinadi.

Boshlang‘ich ta‘limni otasidan olib, davrning zaruriy ilmlarini boburiylar (1526-1858-yy.) saltanatidagi olimlardan olgan, biroq ustozlari nomini zikr etmagan. Olim, xattot va shoir bo‘lib, Mirsayyid Abdulloh Muzaffar Termiziy Mushkinqalam oilasida tavallud topadi.

Ushbu faslda Kashfiy Termiziyning otasi hamda boburiylar saroyidagi mulozimlar bilan aloqalari manbalar asosida yoritiladi. Umuman olganda, Kashfiy hayoti va ijodining o‘z davri adabiy muhitida tutgan o‘rnini uch bosqichga bo‘lib o‘rganish hamda har bir bosqichga ijtimoiy-siyosiy va ruhiy holati jarayonlaridan kelib chiqib baho berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shoir ijodi va faoliyatining birinchi bosqichi yoshlik davri bo‘lib, ilk ta‘limni otasidan olishi, xattotlik va rassomlik kabi nafis san‘atlarning sir-asrorini o‘zlashtirishi; hayotining ikkinchi bosqichi boburiylar saroyida davlat xizmatchisi sifatidagi faoliyati; uchinchi bosqichi esa davlat ishida iste‘fo berib, ijodiy ishlar bilan shug‘ullangan davrini o‘z ichiga oladi. Shoir hayotining mana shu bosqichlarida ham ko‘proq tasavvuf adabiyoti va mutasavvif mutafakkirlar hayotiga katta qiziqish bildirib, ruhiy ta‘sir lanib, hayotining uchinchi qismini botiniy olamini poklashga sarflaydi. Asarlarining aksariyatini mana shu davrda yozgani, o‘z devonining bir nechta joyida, “g‘arib”, “piri”, “dardi firoq”, “judoiy,” “bekas-u bechora”, “faqir”, “alamzada”, “oshiqi zor”, “benavo” kabi ishoralar bilan o‘zining holatiga ishora qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Kashfiy devoni: an‘anaviy kompozitsiya, o‘ziga xoslik, tasavvufiy qarashlar**” deb nomlanadi. Bobning “Devon tarkibi va janr xususiyatlari” deb atalgan birinchi faslida Kashfiy devonining nusxasi tarkibi, tavsifi, kompozitsiyasi, janr ko‘lami va ayrim she‘rlarining ma‘no-mazmuni haqida so‘z yuritilgan. Devon tartib berish, mashhur asarlardan nusxa ko‘chirish kotiblardan katta mahorat talab qilgan. Kashfiy yashagan davrda Termiz adabiy muhitining ko‘plab vakillari Hindistonga ko‘chib borishadi. Boburiy podshohlarning xayr-saxovati, olim-u shoirlarga ko‘rsatgan ehtiromi sababli ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘radi. Boburiylar adabiy muhitida bu kabi xattotlik va kotiblik san‘ati keng miqyosda rivojlandi. Movarounnahr adabiy maktablari bo‘lmish – Nasaf, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Termiz zaminida vujudga kelgan adabiy maktablarda sohibdevon shoirlar ko‘p bo‘lgani tarixiy haqiqat.

Birgina misol sifatida aytish mumkinki, X-XIII asrlar oraliq'ida bir qancha termiziy shoirlar o'z she'riy devoni bilan dunyoga tanilib, shuhrat qozondi. Bular orasida Adib Sobir Termiziy, Munjik Termiziy, Amir Muizziy kabi ulug' so'z san'atkorlari alohida mavqega ega. Adib Sobir Termiziy Termiz adabiy maktabining rivojlanishiga katta hissa qo'shganligi ilmiy jamoatchilikka sir emas. Devon tartib berish an'anasi Termiz adabiy maktabining vakillari orasida asrlar osha o'z ishini davom ettirib kelgan. Bunga misol sifatida tadqiqotimizning asosiy obyekti bo'lgan – Kashfiy Termiziyning “Devon”i dalil bo'lishi mumkin. Kashfiy barakali umri davomida boshqa nasriy va nazmiy asarlar qatori badiiy san'atlar va tasavvufiy g'oyalarga boy she'riy devon tartib berishga ham muvaffaq bo'ldi.

Kashfiy o'z she'rlarini devon holiga keltirishiga davr adabiy muhiti turtki bo'ldi. Shoir sohibdevon ekanligini ba'zi she'rlarida o'zi ham ta'kidlab o'tadi:

*Gul kunad to sarnavishti ishq az unvoni mo,  
Bayti abro'i buton shud matla'i devoni mo.*<sup>24</sup>

Mazmuni: G'azal devonini xuddi dur kabi yoshlik va mastlik ayyomida tartib berdim.

Darhaqiqat, Kashfiy Termiziy o'z asarlari ma'no-mazmuniga alohida e'tibor qaratgan. Yangi ma'no va mazmun yaratish Kashfiy uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi baytning mazmunida bevosita devoni tarkibidagi mavzularga ishora qilingan. Shoir devonida “*bayti abro'i buton*” so'z birikmasi ko'p uchraydi. Bu so'zni ko'p istifoda etishi shundan dalolat beradiki, Kashfiy Termiziy o'z devonini haqiqiy yor sifatleri tavsifiga bag'ishlagan. Muallif e'tirofiga ko'ra, devondagi g'azallar ilohiy ilhom va g'aybiy iste'dod natijasida ijod etilgan. Bizningcha, shoir mutasavvif shoirlar kabi ijodining tub mohiyatini “ishq” tashkil etadi, hamda poetik kayfiyatini “yor” bilan munosabati, “jamol”i tajalliysiga bag'ishlaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, adabiyotshunos Kurushi Mansurning fikricha: Kashfiy devonidagi she'rlarning genezisi hadisi sharif namunalari bilan birga, mumtoz shoirlardan Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Sanoiy G'aznaviy, Sa'diy Sheroziy, Qosim Anvor, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy hamda otasi Mir Sayyid Abdulloh Termiziy va zamondosh shoirlariga payravlik asosida yaratilgan. Shoir ijodiy faoliyati borasida keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirgan Kurushi Mansur shoir devoni bugungi kunda Hindiston, Pokiston, Eron, Buyuk Britaniya va Angliya kabi mamlakatlarning qadimiy qo'lyozma markazlarida saqlanib kelishini ta'kidlab o'tgan. Tadqiqot jarayonida shoir devonining bir nusxasi borligi aniqlandi. Shoir devonining qo'lyozma nusxalari bundan ham ko'p bo'lishi mumkin. Biroq tadqiqot jarayonida faqatgina Hindiston Devon kutubxonasi 456 raqami ostida saqlanib kelinayotgan nusxa jalb etildi. Ushbu nusxa shoir devonining noyob nusxasi sirasiga kiradi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Devonning mavzulari tasnifi va adabiy tahlili” deb nomlanib, asosan Kashfiy devonidagi she'riy janrlarning tasnifi, mavzular tavsifi, g'azallarida majoziy va ilohiy ishqning o'rni, salaf shoirlarga

---

<sup>24</sup> Мухаммад Солих Кашфий Термизий. Девон. Ҳиндистон Девон кутубхонасининг 456 рақамли нусхаси. – В. 2.

payravlik va o'ziga xoslik darajasi, asarlarida qodiriya tariqatining sayr-u sulugi ta'siri tahlil etilgan.

Ushbu faslda Muhammad Solih Kashfiy Termiziyning devonidagi g'azal, musaddas, muxammas, noma va ruboiy janridagi she'rlari tahlil etilib, shoirning poetik mahorati aniqlandi. Shuningdek, Kashfiy g'azallari ma'no-mazmunida Sanoiy G'aznaviy, Attor Nishopuriy, Jaloliddin Rumi, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Qosim Anvor kabi ulug' shoirlarga ergashganligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, shoir she'riyatining so'fiyona xarakterdagi ko'rinishlari buning yorqin misoli bo'la oladi. Ushbu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Kashfiy boshqa zamondosh shoirlar qatori o'zining yetuk ilmiy salohiyatini ishga solib, ijod qilishdan to'xtamadi. Kashfiy ijodi davr g'oyaviy-badiiy tafakkurining in'ikosi, iste'dodli shaxsning tasavvufiy qarashlari, izlanishlari mahsuli sifatida e'tiborga molik. Uning she'rlari shoir davrida mazmunan chuqur ildiz otgan qodiriya tariqati ta'siri natijasida rivojlandi. Shoir boshqa salaf shoirlar qatori may va mayxona ramziy timsollariga alohida urg'u beradi. Kashfiyga ko'ra may, boda, sharob, sog'ar, paymona inson ruhiy olamiga huzur bag'ishlaydigan, butun g'amlarini aritadigan va mahjub bilan bog'laydigan in'omdir. Mayxona esa ma'naviy tarbiya oladigan joy. Shoir shu mayxonada mayning to'liqlanishini - "mayxona ba jo'sh ast" deya mahorat sifatida talqin etadi.

*Maykashon mujda, ki mayxona ba jo'sh ast imshab,  
Boda bo jomi sabu jilvafurush ast imshab.*<sup>25</sup>

Mazmuni: Ey soqiy xursandlik qil, maylar to'lqinga keldi, bu kecha boda jomi ko'zasi bilan jilva etishga tushdi.

Shoir devonidagi she'riy janrlar quyidagi mavzularga bag'ishlangani bilan e'tiborga molikdir:

- majoziy va ilohiy ishq mavzulari;
- ahli baytning siyratiga oid mavzular;
- komil inson axloqi mavzulari;
- tabiat tasviri;
- hamd-u na'at va munojot mavzulari;
- qodiriya tariqatining sayr-u sulugiga oid mavzular;
- davr adabiy muhiti tasviri.

Shoir ijodida yuqoridagi mavzular bayoni ko'proq g'azallarda o'z aksini topgan. She'rlarining genezisini Qur'oni karim, hadisi sharif va mutasavvif shoirlarning qarashlari tashkil etadi.

"Kashfiy devonida qofiya va radif qo'llashdagi poetik mahorat" deb nomlangan uchinchi faslda Kashfiy adabiy merosidan o'rin olgan turli she'riy janrlardagi asarlarda badiiy san'atlarning o'rni tadqiq etilgan.

Shoir devonidagi g'azallar mavzu-mundariyasi davr muammolarini o'z ichiga qamrab olgani bilan xarakterlidir. Ijodkor ilohiy ishq va majoziy ishq bilan birga ijtimoiy hayot muammolariga she'rlari bilan yechim topishga intilgan. Binobarin,

---

<sup>25</sup> Мухаммад Солих Кашфий Термизий. Девон. Ҳиндистон Девон кутубхонасининг 456 рақамли нусхаси. – В. 36

Kashfiy o‘z davrining serqirra va xalqparvar shoiri sifatida boburiylar saroyida xizmat qildi.

Kashfiy boshqa ijodkorlar kabi o‘z asarlarida adabiy majoz, ramz va timsollardan keng foydalanadi. Ayniqsa, tasavvufiy motivlarni ramz bilan ifoda etishga ko‘p intilgan. Ramz borasida adabiyotshunos olim Ahmadqul Quronbekov shunday yozadi: “Ramz – ma’no va maqsadni ishora va imo vositasida ifodalash; bir xil mutanosiblik va o‘xshashlikka rioya qilingan so‘z va ibora, hatto mutanosiblik bo‘lmagan yon ma’noni ifodalash”dir.<sup>26</sup>

Bu keltirilgan qoida shunday ma’noni anglatadiki, adib yoki shoir tabiat, jamiyat va inson bilan bog‘liq biron-bir hodisani misol keltirishda shartli belgilar, shartli so‘z iboradan foydalanadi. Masalan, adabiyotda ishlatiladigan soqiy timsoli bir qancha ma’nolarga ega. Har bir shoir bu timsolni ruhiy holati va shaxsiyatidagi tamoyillar asosida gavdalantiradi. Kashfiy soqiyni – murshidi komil, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v), ayrim o‘rinlarda esa ma’shuq ma’nolarida istifoda etgan.

Hofiz Sheroziyning “Alo yo ayyuhassoqiy, adir ka’san va novilho, Ki ishq oson namud avval vale uftod mushkilho” g‘azaliga tazmin etib aytadi:

*Xumor afzuda Kashfiy bodai Sheroz biyovar,  
Alo yo ayyuhassoqiy adir ka’san va novilho.*

Mazmuni: Ey Kashfiy may xumori tutdi, Sheroz sharobidan keltir, ey may quyuvchi majlisda sharobni aylantirib quygin.

Bu bayt misolida Kashfiy o‘z poetikasida Hofiz Sheroziyga ham payrav bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Kashfiy nazarda tutgan soqiy bilan Hofiz ishora qilgan soqiy murshidi komildir. Murshid muridning sog‘lom ruhiyat bilan tarbiya topishida ma’naviy yo‘lboshchidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Kashfiy ijodidagi badiiy san’atlar nozik did, shoirona mahorat bilan istifoda etilgan. Badiiy san’atlar orqali ilohiy muhabbat bilan birga majoziy muhabbat sir-asrorlarini ham tushuntirgan. Rumi, Hofiz, Jomiy kabi ulug‘ so‘z arboblari payravlik qilib, yuksak g‘oyalarni badiylashtirishga erishgan.

Kashfiy Termiziy asarlarining ma’no-mazmunida tasavvufiy motivlar o‘rni yetakchilik qiladi. So‘fiyona mazmun kasb etgan she’rlari ko‘proq munojot, hamd, na’t, soqiynoma, dilmoma kabi mavzulardan iborat. So‘fiyona she’rlarining genezisini Hadisi sharif, mutasavvif shoirlar ijodi hamda tasavvuf nazariyasiga bag‘ishlangan Hujviriyning “Kashful mahjub” asari, Abulqosim Qushayriyning “Risolai Qushayriya” asari va Imom G‘azzoliyning asarlari tashkil etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Shoir asarlari tavsifi va badiiyati” deb nomlangan. Mazkur bobning “Kashfiy asarlari mavzu mundarijasi va badiiy talqini” tarzida nomlangan birinchi faslida shoirning “Manoqibi Murtazoviy”, “E’jozi Mustafaviya”, “Ruboiyot”, “Favoyih ul-jamol” kabi asarlari tavsifi, mavzu mundarijasi va tahliliga bag‘ishlanadi.

---

<sup>26</sup> Муаллифлар. Н. Комилов. А. Қуронбеков, М. Имомназаров ва бошқалар. Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. – Б. 54

